



AZIZIDDIN NASAFI'S VIEWS ON THE UNIVERSE AND HUMANITY

Zubaydillo Ibodilloevich Narziyev

Associate Professor, Department of Social Sciences,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Bukhara State Pedagogical Institute

zubaydillonarziyev@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Aziziddin Nasafi, Maqsadi aqso, Komil inson kitobi, Vahdat ul-vujud, silsilat ul-tartib, universe, views on the universe and humankind, realm of divinity, realm of power, realm of humanity, realm of angels, realm of physical existence.

Abstract: This article analyzes the views of Aziziddin Nasafi, a prominent representative of medieval Sufi teachings and philosophy and one of our great ancestors, on the creation of the world, the religious-Sufi worldview, the universe and humankind, and the relationship between them.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

AZIZIDDIN NASAFIYNING OLAM VA ODAMGA OID QARASHLARI

Zubaydillo Ibodilloevich Narziyev

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Buxoro davlat pedagogika instituti

zubaydillonarziyev@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Aziziddin Nasafi, Maqsadi aqso, Komil inson kitobi, Vahdat ul-vujud, silsilat ul-tartib, olam, olam va odamga oid qarashlar, lohut olami, jabarut olami, nosut olami, malakut olami, mulk olami.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asr tasavvuf ta'limoti va falsafasining yirik namoyandasi, ulug' ajdodlarimizdan biri bo'lgan Aziziddin Nasafiyning olamning yaratilishi, olamning diniy-tasavvufiy manzarasi, olam va odam, ular o'rtasidagi aloqadorlik haqidagi qarashlari tahlil qilingan.

ВЗГЛЯДЫ АЗИЗИДДИНА НАСАФИ НА МИР И ЧЕЛОВЕКА

Зубайдилло Ибодиллович Нарзиев*Доцент кафедры «Социальные науки»**Доктор философии (PhD) по философским наукам**Бухарский государственный педагогический институт*zubaydillonarziyev@gmail.com*Бухара, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Азизиддин Насафи, Максади аксо, Книга совершенного человека, Вахдат уль-вуджуд, силсилат уль-тартиб, мир, взгляды на мир и человека, мир лахут, мир джабарут, мир насут, мир малакут, мир мульк.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды Азизиддина Насафи, выдающегося представителя средневекового суфийского учения и философии, одного из наших великих предков, на сотворение мира, религиозно-мистическую картину мироздания, мир и человека, а также взаимосвязь между ними.

Kirish. Zamonaviy fizika fani bir nechta olam mavjudligi haqidagi g'oyani jiddiy o'rganmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, bir nechta, hatto cheksiz miqdordagi olamlar bo'lishi mumkin. Ko'p olamlar modeli ilmiy hamjamiyatda bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda, uning muxoliflari ham, tarafdorlari ham bor. Ko'p olamlar nazariyasini qo'llab-quvvatlovchilar orasida Stiven Xoking, Stiven Vaynberg, Brayan Grin, Alan Gut va Michio Kaku kabi olimlar bor. Islom tasavvufi bizning moddiy borliqdan tashqari yana bir necha olam mavjudligini tan oladi. Bu olamlarni ko'p olamli modelning irfoniy talqini deb hisoblash mumkin. Tasavvufiy olamlar ham parallel, ham ko'p qatlamli tuzilishga ega. Islom tafakkur olamida olam tasavvuriga doir uch xil qarash ko'zga tashlanadi. Bu qarashlar zamiridagi asosiy masala mutlaq qudrat egasi bo'lgan Allohning olamni qanday yaratgani bilan bog'liq. Olam haqidagi bilimga ega bo'lish mohiyatiga ko'ra har bir qarash uchun yaratuvchini bilishga qaratilgan ma'no kasb etadi. Demak, olamni bilish aslida Tangrini bilish deganidir. Olamning yaratilishi haqidagi qarashlardan birini sudur nazariyasini himoya qiluvchi islom faylasuflari tashkil etadi. Ikkinchi nuqtayi nazar yo'qdan yaratilishni ilgari suruvchi kalomchilarga tegishli. Boshqa qarash esa zuhur nazariyasini qabul qiluvchi so'fiylardir. Umuman olganda, so'fiylarning olam qarashida qisman kalomchilar, qisman faylasuflar fikrlariga oid ta'sirlar ko'rinsa-da, so'fiylar o'ziga xos olam tasavvurini shakllantiradi.

Darhaqiqat, vahdati vujud ahli soʻfiylar faylasuflar himoya qilgan sudur nazariyasi va kalomchilar ilgari surgan javhar-araz gʻoyasidan foydalanib, olamning yaratilishini tizimli fikr bilan izohlagan edilar.

Adabiyotlar tahlili Mazkur mavzuga oid maʼlumotlar Aziziddin Nasafiyning “Komil inson kitobi”, “Tanzil”, “Kashf ul haqoyiq”, “Bayon ut-tanzil”, “Maqsadi aqso”, “Kashf ul-haqoyiq” kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Nasafiyning olamga boʻlgan tasavvurida ham har ikki maktabga oid bu taʼsirlar oʻzini namoyon etadi. Shuningdek, Nasafiyning olam haqidagi tasavvuri asosida Allohning bilinishni istashi yotsa, olamning martabalar haqidagi qarashlari uning olam haqidagi tasavvurini toʻlaligicha tashkil etadi. Nasafiy koinotning mavjudligini ikki jihatdan izohlagan. Birinchisi “vahdat ul - vujud” maktabiga mansub mutasavviflarning koinotning yaratilishi bilan aloqador tushunchalaridagi yaratilish masalasini “ilohiy ishq” bilan izohlasa, boshqa tomondan koinotning martabalarini (silsila-i marotibi mavjudot) taʼkidlagan islom faylasuflari Ibn Sino va Forobiy qarashlariga oʻxshash shaklda mavjud boʻlishini teologik (ilohiy taaqqul)tushunchasi nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Ibn Sino “Risola fil-ishq” asarida ilk marotaba “ilohiy ishq” tushunchasining falsafiy talqinini berar ekan, “tajalliy” tushunchasini shunday izohlaydi: “Agar Mutlaq ezgulik tajalliy etmaganida, undan hech narsa olib boʻlmasdi. Undan hech narsa olib boʻlmaganda esa hech narsa mavjud boʻlmaydi. Shunday qilib, agar Uning tajalliysi boʻlmaganida, borliqning oʻzi ham bulmasdi; demak, Uning tajalliysi butun borliqning sababchisidir. Oliy zotga boʻlgan ishq qanchalik Uning ulugʻligi uchun boʻlsa, ishq ham shunchalik ulugʻvor boʻladi. Unga boʻlgan sevgining haqiqiy manbai uning tajalliysidadir”.[1] Mutasavvifning olam, koinot hamda ularning yaratilishiga oid qarashlari olam va odamning oʻxshash xususiyatlariga asoslanganini eʼtirof eʼtish joizdir. Nasafiy mutasavviflarning insonni olami sagʻir deb bilishini taʼkidlar ekan, insonni olami kabirning bir oʻxshashi ekanligi haqida qiyoslash lozimligi keltirib taʼkid etgan.[5.114.] Abulhasan Hujviri ham oʻzining “Kashf ul-mahjub” asarida olamga “Olam bu ikki jahondir. Insonda har ikki jahonning nishoni bordir. Bu jahonning nishoni havo, tuproq, suv va olovdir. U balgʻam, qon, safro va savdo koʻrinishida tarkib topgandir”[2.122.]-deb taʼrif bergan.

Aziziddin Nasafiy deyarli barcha asarlarida olamga oid qarashlarini “vahdat ul-vujud” taʼlimoti va falsafasiga hamohang tarzda tahlil etgan. Masalan, mutasavvifning yigirma asldan iborat boʻlgan “Tanzil”(Nuzul) asarining mundarijasiga eʼtibor qaratilsa, unda tasavvuf

kosmologiyasi va ontologiyasi, gnoseologiyasi, antropologiyasi, axloqshunosligi, estetikasi, aksiologiyasiga oid muhim mavzularni tahlil etgan. Asarning birinchi aslida o'zlikni, olam va Haqni bilish, nur va uning ko'rinishlari, insonlarning tabaqalari, Haqning zoti va sifatleri, tana va ruhning birligi, jabarut, malakut va mulk olamlari, ijmol va tafsil olami, quvvat olami, Allohning olim va abadiy bo'lishi, Alloh va olamning birligi, tavhid va uning ko'rinishlari, javhar va araz, vujudning qudrat va ixtiyor sifati kabi mavzular tahlil etilgan. Ikkinchi aslida esa, mulk, malakut va jabarut olamlari, insoni sag'iy va insoni kabiyr, anosiri arba'(to'rt unsur), ruh va jismning mizoji, mo'tadil va g'ayri mo'tadil jism va ruh, surat va modda kabi mavzularga o'rin berilgan. Asarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bir masalaning olti maktab nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi va har bir qarashning bir solik tomonidan tamsil etilishidir. Biroq shuni ham qayd etish lozimki, Nasafiy boshqa asarlarida xuddi shunday metodni qo'llagan va foydalangan. Chunki, mutasavvif boshqa asarlarida har qanday mavzuni umumiylik jihatidan dastavval kalom ahlining, so'ngra faylasuflarning, undan keyin vahdat ul-vujud, hamda kalom ahlining qarashlariga ko'ra izohlagan va vahdat ul-vujud maktabining "ahli nar" hamda "ahli nur" deya ikki qismga bo'lingan soliklarning tushunchalariga o'rin bergan. "Tanzil"ning yana boshqa asarlaridan farq qiladigan jihati shundaki, boshqa asarlarida har bir qarashni ifodalagan solikning unvoni zikr etilgan holda bo'lsa, "Tanzil"da faqagina solik so'ziga ishora qilingan. Chunki, diqqat bilan e'tibor qaratilganda ko'rinadiki, Nasafiyning "Tanzil"dagi "soliki avval", ilk solik bilan boshqa asarlaridagi kalom ahli nomi bilan zikr etilgan fikrlar o'rtasida tamomila muvofiqlik mavjud. Xuddi shu kabi ikkinchi solik bilan faylasuflarning, uchinchi solik bilan tanosux ahlining, to'rtinchi solik bilan vahdat ul - vujud ahlining, beshinchi solik bilan vahdat ul - vujud ahlining nar, oltinchi solik bilan nur guruhlarining fikrlari bir-biriga hamohangdir. Biroq, Nasafiyning fikricha, "Tanzil"da o'rin berilgan olti solikning fikri birinchidan oltinchi solikning fikrlariga qarab rivojlanmaydi. Ya'ni birinchi solikning qarashi ikkinchi solikning qarashiga ko'ra nuqsonga egadir, yoki oltinchi solikning qarashi ikkinchi solikning tushunchasiga nisbatan mukammalroq deb bo'lmaydi. Mohiyatan, bu soliklarning har biri bir falsafiy maktabning tamsilchisi bo'lib hisoblanadi. Barchasining ilmlari va fikrlari juz'iy xususiyatga ega. Haqiqatni aniqlab olish uchun har olti maqomning yaxshi va yomon jihatlariga ratsional tarzda tashxis qo'yish va ularni o'rtacha ya'ni mo'tadil bir shaklda tushunish lozimdir.

Nasafiy kichik olam bo'lgan inson bilan katta olamni taqqoslab, olam darajalarini shu holatdan kelib chiqib tushuntirishga harakat qilgan. Masalan, mutasavvifning "Bilgilki, kichik olam katta olamning namunasi va kichraytirilgan nusxasidir, katta olamda nimaiki bo'lsa, kichik olamda ham bor. Demak, katta olamda nimaniki isbot etsalar, kichik olamda ham uning ko'rinishi

bo'lishi kerak, bu so'z to'g'ridir"[3.128.]-fikri ayni yuqoridagi keltirilgan fikrlarni qanoatlantiradi. Katta olamning darajalaridan xabardor bo'lish uchun katta olam va kichik olamning o'rtasida ularning tatbiq etishdan ko'ra aniqroq va ravshanroq dalil yo'q, chunki katta olamning qaysi darajasini isbot etsalar, agar bu daraja kichik olamga mos bo'lsa, to'g'ridir, agar mos bo'lmasa, to'g'ri emas.

Nasafiyning uqtirishicha, odamzotning nutfasi (urug'i) jabarut olamining namunasi, jismi va ruhi esa, mulk olami va malakut olamining ko'rinishidir. Jism va ruh nutfadan paydo bo'lgan va vujudga aylangan. Shuningdek, nimaiki nutfada pinhon va mujmal edi, barchasi jism va ruhda zohir va mufassal bo'ldi hamda ijmol olamidan tafsil olamiga keldi, zot martabasidan sifat martabasiga yetishdi.

Zero, Nasafiy ham olamning yaratilish sababini Allohning bilinishni xohlashiga asoslaydi. "Men yashirin xazina edim, bilinishni xohladim va xalqni yaratdim" qudsiy hadisiga e'tibor qaratgan Nasafiyga ko'ra, Allohning olamni va olamdagi barcha maxluqotni yaratishdan maqsadi Odam farzandlarining yaratilishidir. Shunday qilib, Odam farzandlari Allohni tanib, uning nuriga erishadi.[6.68a]

Nasafiy yashirin xazina bo'lgan Allohning ism, sifat va fe'llarini namoyon qilish orqali olamni yaratishini botindan zohirga chiqishi deb hisoblaydi. Allohning "Men maxfiy xazina edim" oyati Nasafiyning nazdida daryoyi avvalning muqobilidir. Bilinishni istab, uni namoyon qilish bilan daryoyi soniyda ruhi izofiy zohir bo'ladi. Ruhi izofiy olami kabirning javhari avval bo'lib, keyin sifat va ismlar ajralib, namoyon bo'lishi natijasida malakut va mulk olamlari zohir bo'lgan.[6.121a] Zero, ism, sifat va fe'llarni namoyon etib, olamda o'z jamoliga guvoh bo'lgan Alloh uchun olam bir ko'zgudir. Nasafiy Allohning o'z jamoliga guvoh bo'ladigan ikki xil ko'zgu mavjud, degan fikrdadir. Ulardan biri - o'z aksini ko'radigan ichida yashayotganimiz olam va kichik olam hisoblangan insondir. Zero, Alloh insonni o'z suratida yaratgan va insonda o'zini ko'radi.[6.139b] Bilquvva bo'lgan har bir narsani bilfe'lga aylantirib, olamda o'z jamoliga guvoh bo'lgan Allohning vujudidan boshqa vujud yo'q, degan qarashda bo'lgan Nasafiy olamning yaratilishida fayz tushunchasiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, faqat javhari avval Allohdan fayz qabul qilish qobiliyatiga ega.[6.109a] Mavjudot javhari avvalning har bir narsaga fayzi bilan zohir bo'lmoqda. Shu sababli, ilohiy kamollarning zuhurga kelish istagi bilan Alloh taolo o'zining komil qudratidan olamni vujudga keltirgan.[6.119a]

"Vahdat ul vujud" ta'limoti va tamoyillarini qabul qilgan mutasavviflar Alloh va koinot munosabatlarini izohlar ekan, mukavvanot(yaratiqlarning barchasi)ning qanday shaklda yaratilganligi haqida "vahdat ul vujud" nazariyasiga uyg'un tarzda qator izlanishlar olib borishgan.

Bu izlanishlarga ko‘ra olamning yaratilishi bir qancha bosqichlardan o‘tib, reallikka aylanadi. Bu yaratilish “hazorati xams”(besh ilohiy hazrat) va “tanazzulati sab’a”(yetti ruhiy tushish) kabi tushunchalar bilan o‘rganilgan.[1.159]

“Xazorat ul xams” deganda tasavvuf falsafasida besh olam tushuniladi. Bu olamlar quyidagidardan iborat:

- 1.Lohut olami
- 2.Jabarut olami
- 3.Malakut olami
- 4.Mulk olami
- 5.Inson olami

Mutasavviflar koinot va koinot jismlarini besh martaba ya’ni “Hazorat ul xams” tushunchasi aloqadorlikda tushuntirgan bo‘lishsa, ulardan farqli tarzda Nasafiy uch martaba ya’ni mulk - moddiy olam, malakut - ruhlar olami va jabarut - ilohiy olam tushunchalari bilan izohlagan.

Mutasavvif bu uch tushuncha orqali koinotning haqiqatini va ayni vaqtda koinot-Alloh munosabatlarini barcha tafsilotlari bilan birga tahlil etgan. Bundan tashqari Nasafiy koinotning bu uch martabasini Allohning zot, vajh, nafs martabalari bilan qiyoslagan va shu tariqa koinotning Alloh qarshisidagi holatini tadqiq etishga uringan. Nasafiyga ko‘ra, koinot araz va javharlardan tashkil topgan. Nasafiyning fikricha, jabarut olami mulk va malakut olamini bilish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tashxis etish faylasuflar va mutasavviflar e’tibor qaratgan muhim ilmiy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ayni shu masalada Nasafiyning quyidagi fikrlari bizning fikrlarimizni isbotlashga asos sifatida xizmat qiladi: “Ey darvesh! Mulk, malakut va jabarut haqida qisqacha bilib olding, endi batafsil bu haqda so‘zlayman. Shoyadki, tafsil yo‘lida bilib olsang, negaki bu masalada olimlar, faylasuflar va shayxlar oldida ilmning mushkulotidandir. Olimlar, faylasuflar va shayxlardan ko‘pchilik bu masalada sarson-sargardondir”.[3.130.] Ayrim mutasavviflar Allohni zotiga jabarut, azaliy sifatlariga malakut, boshqa ba’zilar esa, Allohni zotiga nisbatan lohut, sifatlariga nisbatan jabarut nomini berishgan. Shunga ko‘ra, jabarut zot va malakut o‘rtasida bo‘ladi. Buyuk mutasavvif Abutolib Makkiy jabarutni sifat va ismlar olami deb tushungan. Vahdat va “Haqiqati Muhammadiya” martabasiga ham jabarut deyilgan. Jabarut olamida jabr holi hukm suradi. Shunga ko‘ra, Haq xalqqa nimani iroda va taqdir etgan bo‘lsa, shu bo‘ladi. Bu olamda insonning irodasidan asar ham yo‘q. Nasafiy bo‘yicha bu uch olamni tushunishning eng to‘g‘ri usuli bu - ularning martabalarini insonning martabalari qiyoslashdir. Tasavvuf falsafasi nuqtayi nazaridan agar bu uch olamni buyuk olam (makrokosmos) desak, buyuk olamning haqiqatini bizga eng go‘zal shaklda namoyon etgan yagona borliq va uning xulosasi

bo'lgan kichik olam(mikrokosmos) - insondir. Shunga ko'ra, insonning ilk nutfasi(urug'i) jabarut olamining namunasidir va jismi hamda ruhi esa, mulk va malakut olamining ko'rinishidir. Jism va ruh ham malakut va mulk olamining vahji, ko'rinishidir. Mulk olami hissiy martaba, malakut olami esa aqliy martabada turadi. Jabarut olami bularning o'zi va haqiqati bo'lgani uchun haqiqiy martabadadir. Nasafiyga ko'ra, jabarut olami mohiyatlar(g'oyalar) olamidir. Barcha oddiy va murakkab narsalar(mufradot va murakkabot), javharlar va arazlar(substansiya va aksidensiya), mahsusot va ma'qulot(sezgilar va aqlar)ning mohiyatlari barchasi jabarut olamidadir, bu mohiyatlarning ayrimlari juz'iy, ayrimlari kulliy tarzda mavjuddir. Shu jihatdan Alloh haqida fikr yuritilmasa, mohiyat tushunchasi Borliq va yo'qlikdan ko'ra yuqoriroq turgan narsa bo'lib, borliq va yo'qlikdan umumiyroq bo'lib, ham borliqning, ham yo'q tarkibiy juz'i bo'la oladi. Aytish mumkinki, mohiyatlar yaratilmagan va ularning ibtidosi yo'q. Yuqoridagi fikrlarning asosi sifatida Qur'oni Karimning "Toho" surasi elliginchi oyatini ko'rsatish mumkin. Biroq Nasafiyning mohiyatdan maqsadi, mutasavviflarning "ashyo'i sobita" deb ta'kidlagan tushunchalari bilan aynandir. Chunki zot, narsa va mohiyat mutasavvifning fikriga ko'ra, aynan bir martabada bo'lib, konseptual jihatdan lozim bo'lsa narsa, zot va mohiyat tushunchalari jism, javhar va vujud tushunchalariga qaraganda kengroq va mazmunliroqdir. Mohiyatlar yoki ashyo'i sobita, Haqning azaldagi "alastu"(Men robbilaringiz emasmanmi) xitobi bilan zohir bo'lgan bo'lgan ashyo'dir. Payg'ambarimiz bu narsalarning qanday bo'lsa, shundayligicha bilish va ko'rishni istagani "Allohumma arinal-ashyo kama hiya"dan asl maqsadi ham narsalarning ya'ni ashyolarning haqiqati, ularning o'zgaruvchan yoki o'zgarmasligini bilishdan iborat bo'lgan. Nasafiyga ko'ra to'rt odam bordir. Bular:

- 1.Odami jabarut
- 2.Odami malakut
- 3.Odami mulk
- 4.Odami tuproq

Mutasavvifga ko'ra, bu odamlar bir emas va o'zida turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, jabarut odami borliqning avvali bo'lib, barcha mavjudot jabarutdan paydo bo'ladi. Shuningdek, malakut odami malakutning ibtidosi bo'lib, birinchi Aqlidir. Chunki malakut olamining barchasi Birinchi Aqldan paydo bo'lgan. O'z o'rnida mulk odami mulk olamining avvali bo'lib, u birinchi falak deb aytiladi va mulk olamining barchasi Birinchi falakdan vujudga kelgan. Tuproq odami bo'lsa, barcha ilmlar zuhur bo'ladigan va nurlarni o'zida jamlab, namoyon etadigan mavjudot bo'lib, uning nomi - Komil insondir, chunki barcha ilmlar Komil insonda paydo bo'lgan.[3.131.] Mutasavvifning ta'kidlashicha, Tuproq odami nurlarning mag'ribidir, chunki barcha nurlar jabarut

mashriqidan chiqib, Tuproq odamiga singib ketadi. Shunga o'xshash fikrlar Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlarida ham uchraydi. Tadqiqotchi Ja'far Xolmo'minov Abdurahmon Jomiyning "Hazaroti xams" tushunchasini sharhlar ekan, beshinchi hazratni "Komil Inson martabasi" deb ataganini qayd etib o'tadi. Jomiy Komil Inson sifatlarini sanab o'tish yo uning ta'rifu tavsifini keltirishni lozim topmaydi, balki Ilohiy borliqning Komil Inson vujudida tajalliy etishini eslatib o'tadi, xolos:

Hasti ba marotib chu tanazzul farmud,
Har joy zi rux sha'ni digar parda gushud.
Dar martabai bozpasin k-inson bud,
Har yak zi shu'un ba vasf majmu' namud.[7.158.]

Mazmuni: Ilohiy borliq bir bosqichdan ikkinchi bosqichga nuzul etar ekan, sayr jarayonida noma'lum va ochilmagan narsalarni ham ma'lum va kashf etib boraveradi. Oxirgi bosqich – Inson martabasiga yetgach, oldingi bosqichlardagi barcha narsalarning sifati jamuljam bo'ladi. Asosiy g'oyasi koinot bo'lgan va olamning zoti bo'lib hisoblangan jabarut olami o'z jamolin ko'rish hamda sifatlarini mushohada etish uchun bir ko'zgu istagan. Tajalliy etib, ijmol olamidan tafsil olamiga kelgan va bu tajalliydan ikki javhar vujudga kelgan.

Mutasavvif "Komil inson kitobi" asarida malakut olamining (aqlar, nafslar va tabiatlar) borliqlariga obo(otalar), o'z o'rnida mulk olamining borliqlari(osmonlar, yulduzlar va unsurlar)ga ummahot deydilar deb qayd etgan.[3.133.] Obo va ummahotning birlashishi natijasida mavolid ya'ni farzandlar(ma'danlar, o'simliklar va hayvonlar) vujudga kelgan. Ma'dan, o'simlik va hayvonot murakkabotdir va olamning murakkaboti bundan ortiq bo'lmaydi. Mufradotning murakkab bo'lishining hikmati shundaki, o'zida taraqqiy etish uchun iste'dod topib olsin va uruj etsin. Nasafiyning fikriga ko'ra, falaklar aniq sonini hech kim bilmaydi. Shunisi aniqki, mutasavvif nuzulning o'n to'rt martabasi borligini haqida gapirgan. Urujning ham nuzulga qarshi o'laroq o'n to'rt martabasi mavjud bo'lib, borliq doirasida sodir bo'lgan har bir narsa yigirma sakkiz martabadan o'tadi va takror tarzda o'zining asliga qaytadi hamda doira yakunlanadi.

Mutasavvifga ko'ra, jabarut olami-firat olamidir. Jabarut olami keng bo'lib, undagi yaratilqlar ham ko'pdir, bu yaratilqlar mavjudotning asli va mavjudotning urug'idir. Bu yaratilqlar qanday bo'lsa, xuddi o'shandaydir, hech qachon holi o'zgarmaydi va o'zgarmagan ham. Ularning o'zgarishi yoki o'zgarmasligi haqida muxolif bir mavzuda bahslashib bo'lmaydi. Chunonchi, uning haqiqati va mohiyati o'zidadir. Bu haqida yuqorida qayd etib o'tildi. Bu yaratilqlar o'zlari yashab turgan yer va osmondan boshqa yana boshqa bir yer va osmon borligidan bexabardirlar. Hattoki, boshqa yer va osmonda bir zamonlar Odam va Iblis bo'lganligidan bexabardirlar. Bu

yaratilarning har birining ishi bor, har biri o'z ishiga yaraydi va boshqalar bu ishni qila olmaydi, o'z o'rnida bular ham boshqalar ishini qila olmaydi. Masalan, bo'rining mohiyati hech qachon qo'zining mohiyati bo'lmaydi va bo'ri qo'zilik qila olmaydi yoki shuning aksi bo'lishi mumkin. Chunki har mohiyatning bir sifati bor va mohiyatlarning sifati hech qachon o'zgarmaydi va evrilmaydi. Nasafiy mohiyatlarning sifatlari o'zgarmasada, faqatgina bir narsaning sifatini o'zgarishi haqida fikr bildirgan. Bu nafs va tananing sifatlaridir. Tana va nafsning sifatini o'zgartirish mumkin. Payg'ambarlar va avliyolarning ta'limi va tarbiyasi, da'vati ham ayni shu nafs va tananing sifatlarini o'zgartirish uchundir. Bundan mohiyatning sifatini o'zgartirish imkonsizdir degan xulosa kelib chiqadi. Masalan, bo'rining vahshiyliги uning mohiyatidir va odamlardan qochadi. Uning mohiyatini o'zgartirib bo'lmaydi. Qo'y esa vahshiy emas va aksincha, odamlardan qochmaydi. Qo'y va bo'rining bu sifatleri ularning nafsiga oid sifatlardir. Shu o'rinda mohiyat va sifat haqida fikr yuritganda, Abulhasan Hujviriyning ham mohiyat va sifatlar haqidagi fikrlarni ham keltirish o'rinlidir. Hujviriyy "Kashf ul mahjub li arbob al qulub"(Qalb egalari uchun hijobning ochilishi) asarida hijoblar haqida fikr yuritganda, hijoblarning ikki turini farqlagan va ularga "hijobi rayn"-mohiyat hijobi, ikkinchisiga "hijobi g'ayn"-sifat hijobi deb nom berib, ular o'rtasidaga farqni quyidagicha tushuntirgan: "Chunonchi, hech bir tosh sayqalchilar tomonidan sayqal berilmasa, oyna bo'lolmaydi. Shuningdek, oyna ham sayqallab turilmasa, zanglaydi. Demakki, zulmat ham ravshanlik ham toshning asliy sifatidir. Va bu poydor va doimiy bo'lgani bilan boqiy emasdir. Bas, men bu kitobni dillarga sayqal berish uchun bitdim va buni o'qiganlar g'ayniy sifatga chulg'ansinlar va dillarida Haq nurining moyasi vujudga kelsin. Tokim, buni o'qiganlari barakatidan o'sha hijoblar ochilsin va ma'no haqiqatiga yo'l topilsin." [3.5.] Demak, g'ayn(sifat) hijobi o'zgaruvchan va uni ochish, kashf etish mumkin. Bu insonning nafs va tanasiga oid sifatlardir. Nasafiyning olam haqidagi fikrlariga diqqat bilan e'tibor qaratilsa, mutasavvif mulk olamiga qarama-qarshiliklar, malakut olamiga uyg'unlik, jabarut olamiga vahdat olami deb ham ta'rif beradi. Aytish mumkinki, jabarut olami hamma narsani o'z ichiga oladi va qaysidir ma'noda hech narsasi yo'qdir. Zot martabasi aslida shunday bo'ladi. Ayni vaqtda hamma narsasi bor yoki hech narsasi yo'q. Zot martabasining mohiyatida kasrat-ko'plikka, ko'paytirishga moyillik xususiyati bor. Ammo uning o'zi vahdatdir. Shunga ko'ra, jabarut olami pok, musaffo, sodda, bezaksiz, nom va nishoni, shakl va surati yo'q olam bo'lib hisoblanadi. Aqlar, nafslar va tabiatlar olami bo'lgan malakutda bo'lsa, uyg'unlashuv, tartibga solish, nom-nishon va eng asosiysi farishtalar hamda ruhiyat olamidagilarning martabalari zohir bo'ladi. Mulk olamida qarama-qarshiliklar, olov, tuproq, suv va havo, bugun, kelajak vujud bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, olam va odam muammosi nafaqat tabiiy fanlar, balki islom dini, xususan, kalom, tasavvuf kabi ta'limotlarning diqqat markazida turadigan muammolardan biridir. Shuningdek, Nasafiyning olam haqidagi qarashlari “vojib ul-vujud”, “mumkin ul-vujud”, ishroqiylik, “vahdat ul-vujud” kabi teologik, tasavvufiy-falsafiy yo‘nalishlar g‘oyalari ta’sirida ilgari surilgan va olam javharlar(mohiyat, substansiya) va arazlar (atributlar, xossalar)dan iboratdir. Shuningdek, har qanday javhar yoki arazni ham umumlashtirib, olam deb ta’kid etsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Mutasavvifning olam haqidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlari jabarut, malakut va mulk olamlari hamda ularga xos xususiyatlar asosida ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Ali ibn Sino. Ishq haqida risola. / Mahkam Mahmudov va Zayniddin Bahriddinovlar tarjimasi. / kh-davron.uz 03.01.2018.
2. Abulhasan Hujviri. “Kashf ul mahjub”. Tehron, “Tebbiyon”. Faridun Osiyobiy Ishqiy Zinjoni tahriri ostida. (A.A. Boltayev tarjimasi), 2003. – 221 b.
3. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Najmiddin Komilov, Olimjon Davlatov tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent: 2021. -223 b.
4. Isa Çelîk. Tasavvufi Gelenekte Hazarat-ı Hams veya Tenazzülat-ı Seb'a Anlayışı. Tasavvuf Ilmi ve Akademik Araştırma Dergisi. Ankara 2003 - S.159
5. Komil inson haqida to‘rt risola: Fariddin Attor, Sulton Valad, Aziziddin Nasafiy, Husayn Voiz Koshifiy ijodidan namunalar / Fors - tojik tilidan N. Komilov tarj.—T.: “Ma’naviyat”, 1997, -B. 114.
6. Neseî. Maksad-ı Aksâ.Süleymaniye Kütüphanesi, Mihrişah Sultan Koleksiyonu: 000206.
7. Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf ontologiyasi. (Monografiya). – T.: “Yosh avlod matbaa”, 2021. - B. 158.